

BANKLARDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI

Esanov Oybek Madatovich

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi
audit” kafedrası katta o’qituvchisi*

*Yo’ldosheva Munira Ikrom qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada bank o’z faoliyatini olib borishda funksiyalarini bajarishda u moddiy texnik bazaga ega bo’lishi kerak, ya’ni o’z asosiy vositalar bilan taminlangan bo’lishi lozim. Xususan, asosiy vositalar tan olish, baholash, ularning harakatini hisobga olish hamda amortizatsiya hisoblash tartiblari tahlil etilgan. Asosiy vositalar bir yildan ortiq muddatda foydalanishga mo’ljallangan moddiy aktivlar bo’lib ular bank faoliyatida bank ma’muriy maqsadlar va ijara berish uchun ishlatiladi. Asosiy vositalar hisobini yuritishda amaldagi me’yoriy-huquqiy asoslar va ularni takomillashtirish yo’nalishlari ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: asosiy vositalar, banklarda buxgalteriya hisobi, amortizatsiya, asosiy vositalarni baholash, hisobga olish, asosiy vositalar harakati, bank aktivlari, moliyaviy hisobot, eskirish, qayta baholash, buxgalteriya siyosati, asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish.

Kirish. Banklarda asosiy vositalar hisobi muhim buxgalteriya jarayonlaridan biri hisoblanadi. Asosiy vositalarga bino-inshootlar, kompyuter texnikasi, bank uskuna va asboblari, mebel, hisoblash texnikalari, transport vositalari, foydalanish huquqi bilan olingan yer, kutubxona fondi, va boshqa uzoq muddatli foydalaniladigan aktivlar kiradi. Ularni to’g’ri hisobga olish bankning moliyaviy holatini aniq aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Asosiy vositalar boshlang’ich qiymatida tan olinadi va keyinchalik ularning qiymati amortizatsiya orqali bosqichma-bosqich xarajatlarga o’tkaziladi.

Tadqiqot natijalariga ko’ra: Asosiy vositalarning hisobini tashkil qilish bank faoliyatida alohida o’rin egallaydi. Asosiy vositalarning hisobining vazifalari quyidagicha:

- Asosiy vositalar harakatini to’g’ri va o’z vaqtida hujjatlashtirish va ular bo’yicha hisobni tashkil etish.
- Asosiy vositalar qiymatini qayta baholab borish.
- Asosiy vositalar to’liq saqlanishi ustidan nazorat olib borish.
- O’z vaqtida eskirishni hisoblab borish asosiy vositalarning hisobi vazifalari .

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Banklarda asosiy vositalar hisobi, ularni qayta baholash va amortizatsiya hisoblash masalalari bo'yicha ilmiy manbalar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur mavzuni yoritishda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi asosiy amaliy manba sifatida qo'llaniladi. Ushbu hujjat asosiy amaliy manba sifatida qo'llaniladi. [1] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 13-avgustda 773-17-son bilan ro'yhatga olingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2004-yil 17-iyuldagi 15/3-son qarori bilan tasdiqlangan schyotlar rejasi. Iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan yaratilgan adabiyotlar asosiy vositalar hisobining nazariy jihatlari keng yoritilgan bo'lib, ularda amortizatsiya hisoblashning turli usullari va ularning qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Turli manbalarda berilgan yondashuvlar o'zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari o'rganiladi. [2] Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika K.N.Navro'zova Toshkent – 2003 [3] Temirov A.A. Banklarda buxgalteriya hisobi va operativ texnika. T.: TDIU 2010 yil. Tahlil natijasida shuni aytish mumkinki, ilmiy adabiyotlar asosiy vositalar hisobining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar esa ushbu jarayonlarni amaliyotda to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur mavzuni chuqur o'rganishda har ikkala turdagi manbalardan kompleks foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. [4] O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni [5] Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) , xususan asosiy vositalar hisobi bo'yicha standartlar.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, sintez, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalaniladi. Banklarda asosiy vositalar hisobining nazariy va amaliy jihatlari tizimli yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, asosiy vositalarni hisobga olish va amortizatsiya hisoblash tartiblari o'rganildi. Turli manbalardagi yondashuvlar taqqoslanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Natijada, olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, banklarda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish bo'yicha xulosalar shakllantirildi.

Tahlil natijalar: Natijalar shuni ko'rsatadiki tijorat banklarida asosiy vositalar tarkibida bino-inshootlar bilan bir qator axborot texnologiyalari, serverlar, bankomatlar va to'lov terminallari ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu holat raqamli bank xizmatlari rivojlanishining bevosita natijasi bo'lib, asosiy vositalarining funksional tuzilmasida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birgalikda ayrim banklarda asosiy vositalarning eskirish darajasi yuqori bo'lib, bu ularning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini kuzatadi.

Banklarda asosiy vositalar hisobini olib borishda biz uni muntazam ravishda hisobga olib borishda "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi

hisobvaraqlari rejasi”dagi – 16500 ”Asosiy vositalar” schyotlarida hisobga olinib boriladi. Masalan: Sotib olingan binolar balansda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 16509 – “Bank binolari va boshqa imoratlar”

Kredit 19909 – “Tovar-moddiy qiymatliklari uchun to’langan mablag’lar”

Banklar ham boshqa korxonalar kabi asosiy vositalar qiymatini yillar davomida bosqichma-bosqich xarajatlar o’tkaziladi. Bu jarayon amortizatsiya deyiladi.

Yillik ajratma qancha bo’ladi?

Aniq raqam yo’q lekin odatda quyidagicha aniqlanadi:

Yillik amortizatsiya = Asosiy vosita qiymati : Foydali xizmat muddati (yil)

Amaliy foizlar (taxminiy me’yorlar)

Banklarda ham odatda milliy yoki IFRS standartlariga ko’ra quyidagi diapozonlar qo’llaniladi:

Asosiy vosita turi	Yillik amortizatsiya
Binolar	2%-5%
Jihozlar, mebel	10%-20%
Kompyuter texnika	20%-33%
Transport vositalari	10%-20%

Jadvalga izoh (tushuntirish): Keltirilgan jadvalda banklarda foydalaniladigan asosiy vositalar turlari bo’yicha yillik amortizatsiya ajratmalari foizlari aks ettirilgan. Ushbu foizlar asosiy vositalarning foydali xizmat muddati davomida ularning qiymatini bosqichma-bosqich xarajatlarga o’tkazish me’yorini belgilaydi.

Jadval ma’lumotlariga ko’ra, asosiy vositalarning har bir turi uchun amortizatsiya stavkalari ularning xizmat muddati va foydalanish xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, uzoq muddat xizmat qiladigan aktivlarda amortizatsiya foizi pastroq, tez eskiradigan vositalarda esa yuqoriroq bo’ladi. Mazkur ko’rsatkichlar banklarda asosiy vositalarni hisobga olish, ularning eskirishini to’g’ri aniqlash hamda moliyaviy natijalarni haqqoniy aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalarni hisobga olishda ularni baholash, qayta baholash va eskirishni aniqlash muhim o’rin tutadi. Banklarda amortizatsiya hisoblashning turli usullari qo’llaniladi va bu jarayon bankning buxgalteriya siyosatiga bog’liq bo’ladi. Asosiy vositalarning harakati, ya’ni kirim,chiqimi va ichki ko’chirilishi maxsus hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi va hisob registrlarida aks ettiriladi. Amortizatsiya hisoblash bir nechta usulda amalga oshiriladi:

1) Bir tekisda to’g’ri chiziqli

2) Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda eskirishni hisoblash

3) Tezlashtirilgan usulda amortizatsiya hisoblash

Asosiy vositalarning eskirish summasi bankning xarajatlariga o’tkaziladi va bu buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuvda aks ettiriladi:

Qayta baholangan asosiy vositalar bahosining o'sish qiymati bo'yicha eskirish summasining hisoblanishi buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 56602 - „Bank binosi va boshqa imoratlarning eskirish summasi”

Kredit 16511 - „Binolari va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi”.

Shuningdek, banklarda asosiy vositalar hisobini yuritishda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilish talab etildi. Bu esa hisobning shaffofligini ta'minlash va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish orqali ularning haqiqiy mavjudligi tekshiriladi hamda aniqlangan farqlar tegishli tartibda rasmiylashtiriladi. Bu jarayonlar bank faoliyatini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Bank asosiy vositalaring chiqib ketishi quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- 1)Asosiy vositalarni eng baland narx talab etgan xaridorga sotish yo'li bilan. Bunda asosiy vositani sotishdan kelib tushgan tushumning ushbu asosiy vositaning balansdagi qiymatidan yoqori yoki pastligiga qarab foyda yoki zarar bo'lishi mumkin.
- 2)Bepul berish yo'li bilan.
- 3)To'liq eskirish tufayli hisobdan chiqarish yo'li bilan.
- 4)Tabiiy ofat, avariya yoki yong'in natijasida bo'lish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Banklarda asosiy vositalar hisobi moliyaviy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblandi. Asosiy vositalarni to'g'ri baholash, ularning harakatini aniq hisobga olish hamda amortizatsiyani asosli ravishda hisoblash bankning moliyaviy natijalarini ishonchli aks ettirishga xizmat qiladi. Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilish va buxgalteriya siyosatini to'g'ri tashkil etish asosiy vositalar hisobining samaradorligini oshiradi. Kelgusida ushbu yo'nalishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va hisob tizimini takomillashtirish bank faoliyatining yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra banklarda asosiy vositalar hisobini to'g'ri va xatolarsiz yuritishda quyidagilarni taklif qilaman:

Birinchi, hisobni avtomatlashtirish – banklarda asosiy vositalar hisobini zamonaviy dasturiy ta'minotlar orqali avtomatlashtirish. Bu inson omili xatolarini kamaytiradi va tezkorlikni oshiradi.

Ikkinchi, Xalqaro standartlarga o'tish – hisobni IAS 16 talablari asosida yuritilishini keng joriy etish. Bu bank hisobotlarni xalqaro darajada solishtirish imkonini beradi.

Uchinchi, Inventarizatsiyani muntazam o'tkazish – asosiy vositalarni yilida kamida 1 marta to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish. Yo'qotish va notog'ri hisobga olish holatini kamaytiradi.

To'rtinchidan, amortizatsiya siyosatini takomillashtirish – har bir aktiv turi uchun real foydali xizmat muddatini qayta ko'rib chiqish. Tez eskiruvchi texnikalar uchun tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llash.

Beshinchidan, kadrlar malakasini oshirish – bank xodimlarini buxgalteriya va moliyaviy hisobot bo'yicha doimiy o'qitish. Ayniqsa xalqaro standartlar bo'yicha trening tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

- 1) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 13-avgustda 773-17-son bilan ro'yhatga olingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2004-yil 17-iyuldagi 15/3-son qarori bilan tasdiqlangan schyotlar rejasi.
- 2) Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika K.N.Navro'zova Toshkent – 2003.
- 3) Temirov A.A. Banklarda buxgalteriya hisobi va operativ texnika. T.: TDIU 2010 yil.
- 4) O'zbekiston Respublikasi 'Buxgalteriya hisobi to'g'risida'gi Qonuni.
- 5) Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) , xususan asosiy vositalar hisobi bo'yicha standartlar.